



Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buyuk
davlat

2026-YIL – MAHALLANI RIVOJLANTIRISH VA JAMIYATNI YUKSALTIRISH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2026-yil 18-fevral, № 33 (9204)


Chorshanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni
telefoningiz orqali skaner qiling.



O'ZBEKISTON PREZIDENTI BUYUK BRITANIYA DELEGATSIYASINI QABUL QILDI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 17-fevral kuni amaliy tashrif bilan mamlakatimizda bo'lib turgan Buyuk Britaniyaning Markaziy Osiyo va Ozarbayjon bo'yicha savdo vakili lord Jon Olderdaysni qabul qildi.



O'zbekiston bilan Buyuk Britaniya o'rtasidagi o'zaro manfaatli sheriklikni, birinchi navbatda, savdo-iqtisodiy sohada yanada kengaytirish masalalari muhokama qilindi.

Siyosiy muloqot jadal rivojlanayotgani, barcha darajalarda almashinuvlar faol davom etayotgani ta'kidlandi. Xavfsizlik sohasida samarali hamkorlik yo'lga qo'yildi.

Keyingi 5 yilda tovar ayirboshlash 2 baravar oshdi. London fond birjasida O'zbekistonning 15 milliard dollardan ortiq qiymatdagi suveren va korporativ obligatsiyalari joylashtirildi. O'tgan yili Qo'shma Iqtisodiy qo'mita mexanizmi ishga tushdi.

Britaniyalik hamkorlar bilan birgalikda Prezident maktablari tashkil etildi va uchta qo'shma universitet muvaffaqiyatli faoliyat yuritmoqda. O'zbekistonga tashrif buyurayotgan britaniyalik sayyohlarning soni ortib bormoqda.

Suhbat davomida energetika, moliya, geologiya, transport, kimyo, farmatsevtika, fan va ta'lim sohalarida yangi loyihalarni ilgari surish muhimligi ta'kidlandi.

Shuningdek, mintaqaviy va global ahamiyatga molik dolzarb masalalar yuzasidan ham fikr almashildi.

Uchrashuv yakunida ko'p qirrali hamkorlikni yanada rivojlantirish bo'yicha qo'shma "Yo'l xaritasi"ni qabul qilishga kelishib olindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Motbuot xizmati surati.

O'ZBEKISTON PREZIDENTI AQSHGA JO'NAB KETDI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Amerika Qo'shma Shtatlari Prezidenti Donald Trampning taklifiga binoan 17 – 19-fevral kunlari Tinchlik kengashining dastlabki yig'ilishida ishtirok etish uchun amaliy tashrif bilan ushbu mamlakatga jo'nab ketdi.

Kengashning birinchi sammiti AQSH Tinchlik institutida bo'lib o'tadi hamda G'azo sektorini tiklash, unga gumanitar yordam ko'rsatish, ushbu mintaqada tinchlik va barqarorlikni ta'minlash masalalariga bag'ishlanadi.

O'zbekiston yetakchisi tashrifning ishbilarmonlik dasturi doirasida Amerikaning yetakchi kompaniyalari va moliya institutlari rahbarlari ishtirokidagi strategik loyihalar taqdimoti hamda iqtisodiy sohaga oid ikki tomonlama hujjatlarni imzolash marosimida ishtirok etishi ham ko'zda tutilgan.

Eslatib o'tamiz, Tinchlik kengashi AQSH Prezidenti Donald Trampning tashabbusi bilan tashkil etilgan. O'zbekiston joriy yil yanvar oyida Shveysariyaning Davos shahrida unga ta'sischi davlat sifatida qo'shildi.

O'ZA.

Biz va jahon

O'ZBEKISTON VA AQSH O'ZARO ALOQALARNI MUSTAHKAMLAMOQDA

Muntazamlik kasb etgan O'zbekiston – AQSH siyosiy aloqalari iqtisodiy, madaniy-gumanitar va boshqa ko'plab sohalardagi ikki tomonlama hamkorlikni faollashtirishga xizmat qilmoqda.

Xususan, AQSHda yashayotgan o'zbek diasporasi o'zining iqtisodiy ishtirokini mustahkamlamoqda, milliy an'analarni saqlaydigan, Vatandagi ijtimoiy tashabbuslarni qo'llab-quvvatlaydigan va xalqimizning boy madaniy merosini targ'ib etish orqali ikki mamlakat o'rtasidagi o'zaro tushunishni yaxshilashga hissa qo'shadigan loyihalarni amalga oshirmoqda. Bu esa, o'z navbatida, davlatlar o'rtasidagi bo'lajak rasmiy uchrashuvlar uchun ijobiy kontekstni shakllantiradi.

AQSHda o'zbek diasporasining faol ishtirokiga yangi milliy savdo markazining ochilishi misol bo'la oladi. Amerikaning Pensilvaniya shtatidagi Filadelfiya shahrida "Asr" o'zbek supermarketining rasmiy ochilish marosimi bo'lib o'tdi.

Ushbu loyiha Filadelfiyadagi o'zbek diasporasi vakillari tomonidan amalga oshirildi. Tantanali tadbirda o'zbek jamoatchiligi bilan bir qatorda turk, falastin, afg'on, rus va ukrain diasporalari vakillari ham qatnashdi.

"Asr" supermarketining ochilishi Nyu-Yorkda faoliyat yuritayotgan "Tashkent" o'zbek supermarketlar tarmog'i singari AQSHdagi milliy savdo infratuzilmasining muhim bo'lagiga aylandi. Filadelfiyadagi yangi markaz keng turdagi mahsulotlarni, jumladan, O'zbekistondan import qilingan tovarlarni taklif etmoqda.



Munosabat

MEHR-MURUVVAT, AHILLIK VA SHUKRONALIK OYI

Bismillahir Rohmanir Rohim.
Alloh taolaga hamdu sanolar, Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallamga salavotu salomlar bo'lsin!
O'lkamizga butun musulmon ummati uchun fayzli ayyom – Ramazon oyi kirib kelmoqda. Allah taolo ushbu ulug' o'nying hammamiz uchun qut-barakali, rahmat va mag'firatga to'la bo'lishini nasib etsin. Uni iymon-e'tiqod ila savob umidida o'tkazishga muvaffaq aylasin.

Ramazon – Qur'oni karim nozil bo'lgan, inson qalbini poklaydigan, nafsini jilovlaydigan va go'zal fazilatlarni namoyon etadigan oy. Bu oyda kishilar nafaqat ro'za tutadi, balki ma'nan yuksaladi, mehr-oqibat va o'zaro hamjihatlikni namoyon etadi.

Ramazoni sharif mo'min-musulmonlarni ikki dunyo saodatiga yetaklovchi fursat. Bu muborak o'nying har bir lahzasini g'animat bilib, solih amallar, toat-ibodat va yaxshiliklar ila o'tkazishimiz lozim. Zero, Rasululloh sollallohu alayhi vasallam Imom Bayhaqiyan rivoyat qilingan hadisi sharifda: **"U (Ramazon) mo'min uchun g'animatdir"**, deb qutlug' oydan unumli foydalanishga chaqirganlar.



IPAKCHILIK SOHASI YANGI TIZIM ASOSIDA RIVOJLANTIRILADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev ipakchilik sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari yuzasidan taqdimot bilan tanishdi.

Mamlakatimizda ipakchilik va pillachilik aholini daromadli ish bilan ta'minlash, qishloq joylarda bandlikni oshirish hamda eksport salohiyatini kengaytirishda muhim o'rinni tutadi. Lekin ozuqa bazasidan boshlab pillani chuqur qayta ishlashgacha bo'lgan barcha jarayonlarda to'planib qolgan muammolar soha salohiyatini to'liq ishga solishga to'sqinlik qilmoqda.

Xususan, ipak qurti urug'ining salmoqli qismi import hisobiga to'g'ri kelmoqda. Mahalliy urug'dan foydalanish darajasini 2030-yilgacha 75 foizga yetkazish imkonini borligi, buning uchun naslli urug'chilik stansiyalari faoliyatini tiklash zarurligi qayd etildi.

Taqdimotda Farg'ona va Xorazm viloyatlaridagi naslli urug'chilik stansiyalarida elita urug'lar tayyorlashni yo'lga qo'yish, mavjud 10 ta ipak qurti urug'chilik korxonasiga qo'shimcha joriy yilda Buxoro va Namanganda 2 ta yangi urug'chilik korxonasini, 2027 – 2029-yillarda Toshkent, Jizzax, Samarqand va Surxondaryo viloyatlarida 4 ta yangi korxona tashkil etish rejalari haqida axborot berildi.

Naslchilik va urug'chilik korxonalarini qo'llab-quvvatlash maqsadida ularga xorijiy malakali mutaxassislarni jalb qilish,

mavsumiy ishchilar mehnatiga haq to'lash xarajatining yarmini qoplab berish hamda ularning faoliyatini daromad va ijtimoiy soliq obyekt sifatida hisoblamaslik taklif etildi.

Pilla sifatini oshirish uchun ozuqa bazasini yaxshilash zarurligi ko'rsatib o'tildi.

Ozuqa bazasini 2026 – 2030-yillarda bosqichma-bosqich kengaytirish rejalashtirilgan. Jumladan, 8 ming gektarda yangi tutzorlar barpo qilish, 41,5 ming gektar maydonda yakka qator tut ko'chatlarini ekish, 15 ming gektardagi tutzorlarni rekonstruksiya qilish nazarda tutilgan. Buning natijasida 2030-yilga qadar 200 millionta tut ko'chati ekilishi va ozuqa bazasi 30 foizga oshishi kutilmoqda.

Pilla yetishtirish hajmi ozuqa bazasini tahlil qilish asosida prognozlashtiriladi. Xususan, 2026-yilda 30 ming tonna, 2030-yilga borib 36 ming tonna pilla yetishtirishga chiqish reja qilinoqda.

Sohadagi ishlar yangi tizim asosida tashkil etiladi. "O'zbekipaksanoat" uyushmasi, viloyat va tuman "Agropilla" tuzilmalari, ipakchilik klasterlari o'zaro muvofiqlashgan tarzda ish yuritib, yangi tutzorlarni tashkil etishdan tortib, yetishtirilgan pillani sotib olishgacha bo'lgan barcha bosqichlarda fermerlar, kasanachilar

va qurt boquvchilar ishini tashkil etadi hamda ularga ko'maklashadi.

Kam daromadli, ijtimoiy reestrga kiritilgan oilalarni pillachilikka jalb etish va ularni qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratiladi. Jumladan, joriy yildan boshlab "mahalla yettilligi" orqali aholiga 1 kilogramm pilla qiymatining 35 foizi miqdorida subsidiya, parvarishlash jihozlari va uskunalar xaridiga 20 million so'mgacha ssuda ajratish yo'lga qo'yiladi.

Pillachilikda sanoat usulini kengaytirish muhim vazifa sifatida belgilandi. Hozirda pillaning asosiy qismi xonadon sharoitida yetishtirilayotgani qayd etilar ekan, maxsus qurtxonalar tashkil etish orqali hajm va sifat barqarorligini ta'minlash mumkinligi ta'kidlandi. Klasterlar tomonidan qurtxonalarni qurish va ishga tushirishni rag'batlantirish, shu jumladan, qurtxonalarni yer va mol-mulk solig'idan 2029-yil 1-yanvargacha ozod qilish taklif qilindi.

Eksport va qo'shilgan qiymatni oshirish masalalariga ham alohida e'tibor qaratildi.

Ayni paytda mahalliy pilladan yuqori sifatli xom ipak olish va uni qayta ishlash ulushi pastligicha qolayotgani qayd etildi. Sifatni oshirish va chuqur qayta ishlashni kengaytirish hisobiga eksport

tushumlarini 250 million dollargacha oshirish mumkinligi ko'rsatib o'tildi. Jumladan, 2030-yilga qadar umumiy qiymati 200 million dollarlik 21 ta investitsiya loyihasini amalga oshirish xom ipakni qayta ishlash hajmini 3 ming tonna va darajasini 75 foizga yetkazib, 18,5 million pogon metr ipak mato ishlab chiqarish imkonini beradi.

Eksportda tayyor mahsulot ulushini oshirish, yangi bozorlarni o'zlashtirish, milliy brendlarni shakllantirish va qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari belgilab olindi.

Sohaga raqamli texnologiyalarni keng joriy qilish zarurligi qayd etildi. Ozuqa bazasining hisobi, korxonalar reestri, sohadagi hisobotlar va hisob-kitoblarni elektron shaklda yuritish, urug'lik va pilla xomashyosi hajmlari, pilla qabul qilish punktlarini real vaqt rejimida monitoring qilish jarayonlarini qamrab olgan yagona axborot tizimi ishlab chiqilishi belgilandi.

Prezidentimiz ipakchilikni rivojlantirish bo'yicha takliflarni ma'qullab, ozuqa bazasini mustahkamlash, mahalliy urug'chilikni kengaytirish, sanoat usulini joriy etish va tayyor mahsulot ulushini oshirish bo'yicha mutasaddilarga topshiriqlar berdi.

O'ZA.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasida

IJTIMOY-IQTISODIY MASALALARNING HUQUQIY NEGIZI

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining navbatdagi majlisi bo'lib o'tdi. Unda mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotiga daxldor qator masalalar, jumladan, raqamli markirovkalash tizimi samaradorligini oshirish, "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritishni nazarda tutuvchi qonun loyihalari atroflicha ko'rib chiqildi.

Raqamli markirovkalash tizimi va ochiqlik kafolati

Dastlab deputatlar raqamli markirovkalash tizimi samaradorligini oshirishga qaratilgan qonun loyihasini ikkinchi o'qishda muhokama qildi.

Unda masofaviy soliq tekshiruv jarayonlarini tezkor tashkil etish, soliq to'lovchi huzuriga bormasdan nazorat tadbirlarini amalga oshirish hamda tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga ortiqcha aralashuvlarning oldini olishga

MUHOKAMA MARKAZIDA – PARLAMENTLARARO HAMKORLIK ISTIQBOLLARI

Oliy Majlis Senati Raisining birinchi o'rinbosari Sodiq Safoyev Xorvatiya parlamentining Konstitutsiya, reglament va siyosiy tizim qo'mitasi raisi Ivan Malenitsa bilan uchrashdi.

Muloqot

Suhbat chog'ida O'zbekiston va Xorvatiya o'rtasidagi parlamentlararo hamkorlikning bugungi holati hamda istiqbollarini muhokama markazida bo'ldi. Jumladan, tomonlar qonunchilik faoliyati, parlamentlararo muloqotni, qo'mitalar o'rtasidagi hamkorlikni kengaytirish, shuningdek, delegatsiyalar almashinuvini

faollashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratdi.

Muzokaralarda savdo-iqtisodiy hamkorlikni kengaytirish, xususan, farmatsevtika, tibbiy texnologiyalar, sanoat uskunalar, to'qimachilik, agro qayta ishlash hamda transport-logistika sohalarida qo'shma loyihalarni rivojlantirish masalalari yuzasidan ham fikr almashildi.

"Xalq so'zi".





QISHLOQ XOʻJALIGI FANLARI NOMZODI, OLIY TAʼLIM AʼLOCHISI KARIM OYBEKOVICH EGAMQULOV

Butun hayoti va mehnat faoliyatini mamlakatimiz taʼlim sohasi taraqqiyotiga bagʻishlagan fidoyi ustoz, qishloq xoʻjaligi fanlari nomzodi, oliy taʼlim aʼlochisi Karim Oybekovich Egamqulov 87 yoshida vafot etdi.

Karim Egamqulov 1939-yil 5-mayda Sirdaryo viloyatining Guliston tumanida tugʻildi. 1964-yilda Toshkent davlat pedagogika instituti (hozirgi Nizomiy nomidagi Oʻzbekiston milliy pedagogika universiteti) ni tugatib, shu dargohda katta laborant boʻlib ish boshladi. Soʻngra ushbu institut aspiranturasida tahsil oldi va nomzodlik dissertatsiyasini himoya qildi.

1969 – 1972-yillarda Sirdaryo viloyati “Bilim” jamiyati masʼul kotibi sifatida ishlal, xalqimizga ziyo va maʼrifat ulashishga munosib hissa qoʻshdi.

1972 – 1975-yillarda Sirdaryo davlat pedagogika instituti prorektori vazifasida samarali faoliyat yuritib, oʻzining yetakchilik salohiyatini, tashkilotchilik va tashabbuskorlik fazilatlarini namoyon etdi.

1975 – 1987-yillarda Toshkent irrigatsiya va qishloq xoʻjaligini mexanizatsiyalash muhandislari institutining Yangiyer filiali direktori lavozimida xizmat qilib, respublikamizda soha uchun yuqori malakali kadrlarni tayyorlash ishlarida fidoyilik koʻrsatib mehnat qildi.

Karim Egamqulov ilmiy amaliyot bilan bogʻlab, xususan, qishloq va suv xoʻjaligi taʼlimini va amaliyotini rivojlantirish borasida oʻziga xos tajriba maktabini yaratdi.

Irrigatsiya va qishloq xoʻjaligi sohasiga oid 20 dan ortiq oʻquv-uslubiy qoʻllanmalar va darsliklar muallifi sifatida tanildi.

Tajribali va ilgʻor pedagog Toshkent irrigatsiya va qishloq xoʻjaligini mexanizatsiyalash muhandislari institutining malaka oshirish fakulteti dekani, tuproqshunoslik kafedras mudiri, Sirdaryo viloyati hisobchilarni qayta tayyorlash oʻquv markazi direktori vazifalarida ham samarali mehnat qilib, respublikamiz irrigatsiya va qishloq xoʻjaligi sohasi vakillarining amaliy bilim hamda koʻnikmalarini mustahkamlash, ularni zamonaviy ilm-fan yutuqlari bilan tanishtirish ishlarini samarali tashkil etdi.

Soʻnggi yillarda ulugʻ yoshda boʻlishiga qaramasdan fidoyi jamoatchi, katta hayot tajribasiga ega oqsoqol sifatida yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, qishloq va mahallalarni obod etish, aholi turmush sharoitini yaxshilashga qaratilgan ezuq ishlar samarasini targʻib qilib keldi. Oʻzining dono maslahatlari bilan yoshlarimizni ona Vatanga muhabbat va sadoqat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash yoʻlidagi ishlarga bosh-qoʻsh boʻldi.

Yuksak salohiyatli olim, yoshlarning mehribon ustози, kamtarin inson Karim Egamqulovning xotirasi qalblarimizda hamisha saqlanib qoladi.

SH. MIRZIYOYEV, T. NORBOYEVA, N. ISMOILOV,
A. ARIPOV, S. TURDIYEV, E. TURDIMOV

HUSHYORLIK – OSOYISHTALIK GAROVI

Narkotiklar va oʻqotar qurollarni nazorat qilish agentligi xabariga koʻra, joriy yilning yanvar oyidan boshlab Ichki ishlar vazirligi tomonidan respublika hududida qurol va oʻq-dorilarning noqonuniy muomalasining oldini olish hamda aholi tomonidan ularni ixtiyoriy ravishda topshirishga qaratilgan kompleks targʻibot-tashviqot, tezkor-profilaktik tadbirlar tizimli ravishda amalga oshirib kelinmoqda.

Targʻibot

Natijada yil boshidan buyon noqonuniy saqlangan 181 ta qurol aniqlanib, olib qoʻyilgan. Bu kabi holatlar hushyorlikni taqozo qiladi. “Mahalla yetiligi” va faollar imkoniyatlaridan samarali foydalangan holda, roʻyxatga olingan qurollar, ularning oʻq-dorilarini ichki ishlar organlariga ixtiyoriy ravishda topshirish tartibi, qurol topshirgan shaxslarni ragʻbatlantirish choralari

haqida aholi oʻrtasida keng koʻlamli tushuntirish ishlari olib borilmoqda.

Yil boshidan ushbu yoʻnalishda jami 319 marotaba targʻibot-tashviqot tadbiri tashkil etildi. Natijada yanvar oyidan buyon 195 ta ixtiyoriy topshirish holati qayd etilgani targʻibot ishlari samara berayotganidan dalolat.

Mazkur profilaktik va targʻibot tadbirlari respublika boʻylab izchil davom ettirilmoqda.

“Xalq soʻzi”.

Tashabbus

Suv – muqobil yoʻq bebaho neʼmat. Usiz tiriklikni tasavvur qilib boʻlmaydi. Biroq obihayot tanqislashib, zaxiralarning “tagi” koʻrinib qolayotgani undan oqilona foydalanishni taqozo etayotir. Binobarin, birlashgan Millatlar Tashkiloti jahonda global suv bankrotligi davri boshlanganini eʼlon qilgani ham suv bilan bogʻliq vaziyatning naqadar ogʻir ekanini yaqqol koʻrsatib turibdi. Bunday sharoitda yomgʻir va qor suvlaridan innovatsion yondashuv asosida samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etishi mumkin.

Bu haqda mustaqil tadqiqotchi, xalq deputatlari Toshkent viloyati Kengashi deputati Muhsiddin Nizomiddinov oʻz fikr-mulohazalarini bildirdi.

– Darhaqiqat, qator xorijiy mamlakatlarda yomgʻir suvidan unumli foydalanishning zamonaviy texnologik usullari yoʻlga qoʻyilgan. Masalan, Turkiyada 2 ming kvadrat metrdan

YOMGʻIR SUVI XOSIYATI

ortiq koʻp qavatli uylar hamda yuqori qurilayotgan binolarda yomgʻir suvi yigʻish tartibi belgilangan. Bu tajriba Germaniyada ham keng joriy etilib, suv sarfida tejamkorlikka erishilmoqda. Birgina Frankfurt aeroportida yigʻilgan yomgʻir suvi aeroport yashil hududlarining 60 foizini sugʻorish hamda texnik suvga boʻlgan ehtiyojni qoplash imkonini beradi. Avstraliyada esa yomgʻir suvi shaharlarda 9 foiz, shahardan tashqarida 63 foiz suvga boʻlgan talabni qondiradi.

Bizda-chi? Yomgʻir suvidan foydalanish istiqboli qanday?

Koʻp yillik kuzatuvlarga qaraganda, mamlakatimizda oʻrtacha yillik yogʻin miqdori 186 millimetrga yetadi. Bu muqobil suv zaxiralari yaratish uchun katta imkoniyatdir.

Yurtimizda yomgʻir suvlarini yigʻish

yoʻlga qoʻyilsa, toza ichimlik suvining behuda sarfi keskin kamayadi. “Yomgʻir suvlarini yigʻish va qayta ishlatish tizimini yangi qurilishlar uchun standart sifatida joriy etish” loyihasi ana shu maqsadga qaratilgan boʻlib, u sohaga aloqador mutaxassis va ekspertlar tomonidan suv tizimligini yumshatishda samarali usullardan biri sifatida qaralmoqda. Biroq xorijiy tajribalar shuni koʻrsatadiki, yomgʻir suvlaridan foydalanish ixtiyoriy emas, balki majburiy normalar asosida joriy etilgandagina yaxshi samara beradi. Shu maʼnoda, yangi tiklanayotgan bino va inshootlarda bunday loyihalar joriy qilishning qonuniy asosi yaratilib, milliy standartlar ishlab chiqilsa, suv taʼminotida barqarorlikni oshiradi. Ayniqsa, shahar sharoitida buning ahamiyat juda katta.

Mazkur loyihaning afzal jihatlari juda koʻp. Yomgʻir suvi yigʻish va qayta ishlatish tizimini yoʻlga qoʻyish, ayniqsa, iqtisodiy va ekologik jihatdan qator joriy natijalarga ega. Gap shundaki, 100 kvadrat metr tom maydoniga yillik 300 millimetr yogʻin tushganda, taxminan 30 ming litr yomgʻir suvi yigʻish mumkin. Yoki 500 kvadrat metr tomi, 5 qavatli (18 xonadonli) bino yilliga oʻrtacha 150 ming litr texnik suv zaxirasini hosil qiladi. Yomgʻir suvidan bogʻdorchilik, avtomashina yuvish, sovitsiz jarayonlari va sanitariya tizimlarida foydalanish natijasida har bir xonadonda ichimlik suv isteʼmoli 30 – 50 foizgacha qisqaradi. Toʻplangan suv zaxirasi kommunal uzilishlar vaqtida 2-3 haftagacha avtonom taʼminotni taʼminlay oladi. Bundan tashqari, hovidagi daraxtlar, butalar, gullar va

MEHR-MURUVVAT, AHILLIK VA SHUKRONALIK OYI



Shu nuqtayi nazardan, yurtimizda mohi Ramazonni diniy va milliy qadriyatlarimizga uygʻun holda oʻtkazish hamda moʻmin-musulmonlarimiz ibodatlarini goʻzal shaklda ado etishlari uchun barcha sharoit hozirlandi. Anʼanaga koʻra, bu yil ham jome masjidlarimizda 27 kun davomida xatmi Qurʼonlar oʻqiladi, ulamolarimiz goʻzal mavʼizalar qiladi. Saxovatpesha kishilarimiz mehr-muruvvat ishlarini yanada koʻpaytiradi.

Alloh taologa shukrki, Yangi Oʻzbekistonda barcha soha qatori diniy-maʼfiy jahdada ham yangilanish jadal davom etmoqda. Jumladan, yurtimizdagi masjid, madrasa va ziyoratgohlar obod etilmoqda, ajdodlar merosi tadqiq qilinmoqda, Qurʼon kurslarida minglab hamyurtlarimiz saboq olayotir. Haj va Umra amallarini ado etish imkoniyati kengaymoqda.

Shu maʼnoda, poytaxtimizda muhtasham Oʻzbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi va Samarqand viloyatida mahobatli Imom Buxoriy majmuasi dunyodan etilgani nafaqat xalqimiz, balki butun musulmon ummati uchun eng munosib tuhfa boʻldi.

Mana shunday uchun islohotlarni eʼtirof etish va shukrona keltirish

har birimizning vazifamizdir. Zero, Alloh taolo Qurʼoni karimning Zuho surasi 11-oyatida: “... Rabbingning bergan neʼmati haqida soʻzla...”, deb bandalariga xitob qiladi.

Prezidentimizning “Muborak Ramazon oyini munosib tarzda oʻtkazish toʻgʻrisida”gi qarorini xalqimiz juda katta mamnuniyat bilan kutib oldi. Ushbu qarorga muvofiq “Ramazon – mehr-muruvvat, ahillik va shukronalik oyi” degan ezuq gʻoya asosida keng koʻlamli chora-tadbirlar amalga oshirilishi muborak oyni yanada koʻtarinki ruhda oʻtkazishda muhim omil boʻladi.


Kuni kecha Prezidentimiz rahbarligida oʻtkazilgan Ramazon oyida ehtiyojmand aholining ijtimoiy himoyasini yanada kuchaytirish masalalariga bagʻishlangan yigʻilish barchamizning qalbimizni nurafshon etdi. Yurtboshimiz unda muborak oyda nuironiylar, yolgʻiz va ehtiyojmand fuqarolar holidan xabar olish, ogʻir ahvolga tushib qolgan oilalarga amaliy koʻmak koʻrsatish boʻyicha qator chora-tadbirlarni belgilab berdiki, bu ishlarning barchasi mohi Ramazonning shukuhiga, xalqimizning hamisha mehr-oqibatlari boʻlish, yiqilganni suyash, saxovat va hamjihatlikni ulugʻlashdek azaliy

qadriyatlariga gʻoyat hamohangdir.

Muhimi, yigʻilishda ana shu xayriya tadbirlarining moddiy manbalari ham aniq koʻrsatib oʻtildi. Yaʼni bu savobli ishlarni amalga oshirish uchun “Vaqf” fondiga 750 milliard soʻm hamda Ijtimoiy himoya milliy agentligi orqali 300 milliard soʻm ajratilishi belgilandi. Ushbu mablagʻlar hisobidan ehtiyojmand oilalarga moddiy yordamlar koʻrsatiladi, nogironligi bor shaxslarning davolanishi va jarrohlik amaliyoti xarajati qoplab beriladi. Bu esa minglab kempt qalblarni nurga toʻldiradi, ertangi kunga ishonchini mustahkamlaydi. Qanchadan-qancha oilalarga quvonch va umid olib kiradi.

Zero, Ramazon – xayr-ehson va saxovat oyi. Bu oyda qilingan har bir solih amalning savobi bir necha barobar ziyoda qilib beriladi. Hadisi sharifda: **“Rasululloh sollallohu alayhi vasallam yaxshilik qilishda odamlarning eng saxovatlisi edilar. U zot Ramazon oyida yanada saxiyoq boʻlar edilar. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam yaxshilik qilishda esayotgan shamolam ham saxovatliroq boʻlar edilar”**, deb rivoyat qilingan.

Demak, ushbu muborak oyda har bir musulmonning xayr-saxovat va ezuq



amallarni yanada koʻpaytirishi Rasul alayhissalomning sunnatlariga muvofiq boʻlib, savobi bir necha barobar ulugʻ boʻladi.

Shu oʻrinda oʻtinchimiz ham bor: tadbirkorlarimiz har bir xayrli amalga ulkan ajrlar vaʼda qilingan ushbu oyda oziq-ovqat mahsulotlari narxini oshirmasdan, imkon qadar bahosini arzon qilib sotsa, roʻzadorlarning duolarini olishi aniq. Haq taoloning roziligini topish niyatida boʻlgan tijoratchi birodarlarimiz qutlugʻ oy davomida oziq-ovqat mahsulotlariga alohida chigirmalar qilishsa, ulkan xayrli ish boʻlar edi.

Iftorlik marosimlarida isrofgarchilikka yoʻl qoʻymaslik – yana bir muhim masala. Ushbu tadbirni xonadonlarda

yaqinlarimiz bilan ixcham va mazmuni oʻtkazishimiz lozim. Oʻz navbatida, kam taʼminlangan oilalar uyilarida iftorliklar qilib berish orqali ularning koʻnglini shod etib, katta ajru mukofotlarga erishsak, muborak ayyom shukuhi yanada ortadi.

Ramazon – duo va taqvo oyi. Har bir solih amal katta ajru savobga sabab boʻlib, qalbdan chiqqan duolar ijobat boʻladi. Imom Ahmad rivoyat etgan hadisi sharifda Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: **“Albatta, Ramazonning har kunida qabul boʻladigan bir duo bor”**, deb marhamat qilganlar. Shu bois tunu kunlarni gʻanimat bilib, xatmi Qurʼon va taroveh namozlarida, iftorligu saharliklarda yurtimiz tinchligi, xalqimiz farovonligi, davlatimiz rahbarining olib borayotgan ishlariga rivoj tilab, dunyodagi barcha musulmonlarning osoyishtaligi uchun duolar qilsak, ishonamizki, ularning ijobati, albatta, roʻyobga chiqajak.

Vassalom aleykum va rahmatullohi va barakotuhu.

Shayx Nuriddin XOLIQNIZAR,
Oʻzbekiston musulmonlari idorasi raisi, muftiy.

Aks sado

ANIQ NATIJAGA QARATILGAN ISLOHOTLAR YOʻLI

Xalqimizda “Reja puxta tuzilsa, natijalar ham samarali boʻladi” degan gap bor. Darhaqiqat, hal etilishi zarur hisoblangan vazifalar, ijrochi masʼullar, bajarish muddatlari aniq belgilangan, real hayotga moslangan reja va dasturlar taqqiyot uchun muhim omil hisoblanadi.

Yangi Oʻzbekistonda ham yaqin, oʻrta va uzoq muddatli strategik maqsadlarimizga mos vazifalarni, ularning ustuvor yoʻnalishlarini aniq belgilab olish hamda oʻz vaqtida bajarilishini taʼminlash yaxshi anʼanaga aylangan.

Kuni kecha Prezidentimiz tomonidan 2026-yilga moʻljallangan islohotlar dasturlari hamda “Oʻzbekiston – 2030” strategiyasini amalga oshirish boʻyicha Davlat dasturini tasdiqlash maqsadida tegishli farmon qabul qilindi.

Eng muhimi, bu dasturlarda avvalgi amaliyotdan farqli ravishda “hujjat qabul qilish”dan koʻra “aniq natijaga erishish” tamoyili ustuvor etib belgilangan. Har bir tashabbus boʻyicha amalga oshirish mexanizmlari, masʼul ijrochilar hamda yil yakunida erishilishi lozim boʻlgan KPI koʻrsatkichlari aniq ifodalangan.

Islohotlar dasturlarining koʻlamdor yoʻnalishlari Prezidentimiz tomonidan xalqimiz va Oliy Majlisga yoʻllangan Murojaatnomada ilgari surilgan gʻoyalar va 2026-yil uchun belgilangan ustuvor maqsadlarni qamrab olgan. Bular – mahallalar infratuzilmasini rivojlantirish va ularga zamonaviy qiyofa berish, iqtisodiyotni texnologik va innovation oʻsish modeliga oʻtkazish, yangi mehnat bozori arxitekturasini shakllantirish va kasblarni rivojlantirish, ekologik muvozanatni taʼminlash, suv resurslaridan oqilona foydalanish, davlat boshqaruvi hamda sud-huquq tizimini yanada takomillashtirish, jamiyatda birdamlikni mustahkamlash orqali barqaror taraqqiyotga erishish kabi muhim yoʻnalishlarni oʻz ichiga oladi. Ular esa mamlakat taraqqiyotining barcha asosiy sohalarini qamrab olgan boʻlib, aholi turmush sifatini yaxshilashga qaratilgan tizimli chora-tadbirlar majmuini tashkil qiladi.

“Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili” doirasida qabul qilingan Davlat dasturida 337 ta banddan iborat aniq amaliy chora-tadbirlar aks etgan. Joriy yil davomida sohalar kesimida 59 ta muhim normativ-huquqiy hujjat ishlab chiqilishi rejalashtirilgan. Bu esa davlat siyosatining barcha sohada tizimli, huquqiy asoslangan va ochiq tarzda amalga oshirilishini taʼminlaydi.

Mazkur dasturlarni ishlab chiqish jarayonida jamoatchilik fikrini inobatga olishga alohida eʼtibor qaratilgani diqqatga sazovor. Davlat dasturi loyihasi keng jamoatchilik muhokamasidan oʻtkazilib, ommaviy axborot vositalari va internet tarmoqlari orqali keng yoritildi. Muhokama jarayonida 5 milliondan koʻp fuqarolar loyiha bilan tanishib, 22 mingdan ziyod taklif va fikr-mulohazalar bildirdi. Oliyogʻohlar, davlat idoralari hamda xorijdagi vatandoshlar ishtirokida oʻtkazilgan uchrashuvlar orqali yanada boyitilgan takliflar qabul qilindi.

Tahlillar natijasida 1000 ga yaqin konstruktiv takliflar Davlat dasturi loyihasiga kiritildi. Bu jarayon islohotlarning xalq bilan muloqot va jamoatchilik nazorati asosida amalga oshirilayotganini yaqqol namoyon etmoqda.

Dastur doirasida qator muhim tashabbuslar qoʻllab-quvvatlandi. Ayollar va bolalarga nisbatan zoʻravonlik uchun javobgarlikni kuchaytirish, ipoteka va elektromobil xaridi uchun kredit mexanizmlarini takomillashtirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarining ulushini 30 foizga yetkazish, korrupsiyaga qarshi kurashishni yangi bosqichga olib chiqish, sud jarayonlarida xalq vakillari hayʼatini joriy etish shular jumlasidan. Ushbu amaliy ishlar jamiyatda qonun ustuvorligi, ijtimoiy adolat va xavfsizlikni taʼminlashga xizmat qiladi.

2026-yilga moʻljallangan islohotlar dasturlari va Davlat dasturi mamlakatimizda yangi bosqichdagi taraqqiyotni taʼminlashga qaratilgan muhim hujjatlardir. Zotan, ular inson qadriini ulugʻʻlash, aholi farovonligini yuksaltirish, iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish va jamiyatda adolatni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Shuhrat YOQUBOV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati.

Joriy yil 1-iyundan Oʻzbekiston va hamkor davlatlar oʻrtasida suv hamda salqin ichimliklarga nisbatan raqamli markirovka kodlarini oʻzaro tan olish joriy etiladi.

TARAQQIYOTIMIZNING NAVBATDAGI BOSQICHI

Bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning bosh maqsadi – faqat xomashyo sotish emas, balki tayyor, qo‘shilgan qiymati yuqori mahsulotlar ishlab chiqarish va jahon bozorlarida munosib o‘rin egallashdir. Prezidentimizning Toshkent viloyati Ohangaron tumaniga tashrifi hamda elektrotexnika sanoati texnoparki faoliyati bilan tanishuvi aynan shu strategik maqsadning amaliy ifodasi bo‘ldi.

Nuqtai nazar

Tashrif davomida bo‘lib o‘tgan videoselektor yig‘ilishida hududlarning iqtisodiy ko‘rsatkichlari tanqidiy tahlil qilindi. Bu bejiz emas. Ta’kidlash joizki, bugun Yangi O‘zbekiston iqtisodiyoti shunchaki o‘shish emas, balki tub sifat o‘zgarishlari davrini boshdan kechirmoqda. Masalan, o‘tgan yil yakunlariga ko‘ra, mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti 7,7 foizga o‘shib, 147 mlrd. dollardan oshirdi. Bu ko‘rsatkichga jahon iqtisodiyotidagi murakkab geosiyosiy vaziyat va global iqtisodiy tebranishlar sharoitida erishilganini inobatga olsak, natijaning ahamiyati yanada yaqqol namoyon bo‘ladi.

Eng muhimi, iqtisodiy o‘shishning yarmidan ko‘pi xizmatlar sohasi hisobiga ta’minlangani, bir dollarlik qo‘shilgan qiymat yaratish uchun sarflangan energiya xarajatlari 15 foizga kamaygani iqtisodiyotimizda tarkibiy va sifat jihatdan o‘zgarishlar kechayotganidan dalolat beradi. Qishloq xo‘jaligida gektaridan o‘rtacha daromad 4,5 ming dollardan 5 ming dollargacha oshdi, mehnat unumdorligi 4,7 foizga ko‘tarildi. Bularning barchasi iqtisodiyotimizning yangi bosqichga o‘tayotganini ko‘rsatadi.

Barqarorlik – ustuvor vazifa

Natijalar bilan kifoyalanmasdan, iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash mamlakatimiz uchun ustuvor vazifa sanaladi. Shu bois 2026-yil uchun 6,6 foizlik iqtisodiy o‘shish va yalpi ichki mahsulot hajmini 167 mlrd. dollarga yetkazish rejalashtirilgan. Bu ehtiyotkor hisob-kitob bo‘lib, mavjud imkoniyatlar to‘liq safarbar etilsa, bundan ham yuqori natijalarga erishish mumkin. Shu bois Prezidentimiz har bir vazir, hokim va tarmoq rahbari o‘z sohasiga zamonaviy boshqaruvni joriy etishi, sun’iy intellekt va raqamlashtirish imkoniyatlaridan foydalanishi, innovatsiya va startap tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlashi



shartligini ta’kidladi. Bu yondashuv iqtisodiyotda ekstensiv emas, balki intensiv o‘shish modelini qaror toptirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, yig‘ilishda joriy yil uchun 50 mlrd. dollar xorijiy investitsiya jalb etish rejasini belgilangani ma’lum qilindi. Xorijiy investitsiyalarni o‘zlashtirishda yangi loyihalar, avvalo, yuqori qo‘shilgan qiymatli va eksportbop mahsulot ishlab chiqarishga qaratilishi kerakligi belgilandi. Qolaversa, endilikda investitsiya dasturiga kiritilayotgan har bir loyiha uning bozori, eksport salohiyati, yaratadigan ish o‘rni va qo‘shilgan qiymati asosida tanlanadi.

Xususan, 165 mlrd. dollarlik 377 ta strategik loyiha alohida nazoratga olinib, ularning amalga oshirilishi uch yil davomida monitoring qilinadigan “Yagona milliy loyiha boshqaruvi” platformasi joriy etiladi. Xorijiy sarmoya kirib kelganda, odatda, investor o‘zining xalqaro hamkorlik tarmog‘i, logistika yo‘nalishlari va savdo aloqalarini ham olib kiradi. Bu esa mahalliy mahsulotlar uchun yangi eksport bozorlarini ochadi.

Natijalar to‘xtab qolishga asos bo‘lmoyladi

Davlatimiz rahbari boshchiligidagi olib borilayotgan islohotlar zamidira iqtisodiy qudratini oshirish bilan bir qatorda, har bir fuqaroning farovonligini ta’minlashdek oliy maqsad mujassam. O‘tgan yilgi natijalar mamlakatimizning tashqi savdo salohiyati naqadar yuqori ekanini ko‘rsatdi. Eksport hajmi 22 foizga o‘shib, 24 mlrd. dollarga yetgani quvonarli hol.

Biroq erishilgan natijalar to‘xtab qolish uchun asos emas.

Endigi asosiy vazifa – eksport geografiasini diversifikatsiya qilish, ya’ni yangi bozorlarni zabt etishdir. Shu ma’noda, yaqin kelajakda Afrika, Yaqin Sharq va Yevropa davlatlarida “Made in Uzbekistan” ko‘rgazmalarini uyushtirish rejalashtirilgan. Qolaversa, “100 ta mahsulot akseleratori” dasturining ishga tushirilishi eksport hajmini yillik kamida 25 foizga oshirish imkonini beradi. Bu esa o‘zbek brendi jahonning eng nufuzli peshtaxtalaridan mustahkam o‘rin egallashida muhim omil bo‘ladi.

Yig‘ilishda ta’kidlanganidek, endilikda iqtisodiy o‘shish shunchaki quruq raqamlarni ko‘paytirishdan iborat bo‘lmaydi. Asosiy e’tibor

kunga mustahkam ishonchi. Yangi O‘zbekistonning iqtisodiy modeli esa bu inson qadri ulug‘lanadigan, mehnati munosib qadrlanadigan va kelajak bugundan barpo etiladigan tizimdir.

Sanoat siyosatida muhim davr

Prezidentimizning Toshkent viloyatiga tashrifi va o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishi sanoat siyosatida yangi bosqich boshlanganini ko‘rsatdi. Ohangaron tumani va umuman, Toshkent viloyati oldida turgan vazifa – mavjud har bir qarich yer va har bir dollar investitsiyadan maksimal samara olish. Faqat ilmiy yondashuv va yuqori

“Davlatimiz rahbari boshchiligidagi olib borilayotgan islohotlar zamidira iqtisodiy qudratini oshirish bilan bir qatorda, har bir fuqaroning farovonligini ta’minlashdek oliy maqsad mujassam. O‘tgan yilgi natijalar mamlakatimizning tashqi savdo salohiyati naqadar yuqori ekanini ko‘rsatdi. Eksport hajmi 22 foizga o‘shib, 24 mlrd. dollarga yetgani quvonarli hol.”

qo‘shilgan qiymatga – xomashyo emas, tayyor mahsulot sotishga, innovatsiyalarga, ishlab chiqarishga eng zamonaviy texnologiyalarni tatbiq etishga, samaradorlikka – har bir sarflangan dollar va har bir gektar yerdan maksimal foyda olishga qaratiladi. Bu yangi sifat bosqichi bo‘lib, O‘zbekistonni jahon bozorida raqobatbardosh davlatga aylantiradi.

Iqtisodiy islohotlarning eng muhim jihati – uning ijtimoiy yo‘naltirilganligida. Muborak Ramazon oyi arafasida aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, bozorlarda narx-navo barqarorligini saqlash va arzonlashtirilgan oziq-ovqat yarmakalarini tashkil etish bo‘yicha belgilangan chora-tadbirlar buning yaqqol isboti. Bu qadam millionlab yurtdoshlarimiz uchun munosib tufhaddir. Qisqasi, barcha iqtisodiy ko‘rsatkichlar va strategik rejalar birgina ulug‘ maqsadga, ya’ni inson manfaatiga, xalq rozi bo‘lishiga xizmat qiladi.

Yuqori iqtisodiy o‘shish – shunchaki statistika emas, balki ming-minglab yangi ish o‘rinlari, har bir oila uchun barqaror daromad manbai, tadbirkorlik bilan shug‘ullanish istagida bo‘lganlar uchun keng imkoniyatlar, eng muhimi, har bir vatandoshimizning ertangi

texnologiyalar orqali mahsulotlarimiz nafaqat ichki bozorda, balki xalqaro maydonda ham “O‘zbekistonda ishlab chiqarilgan” degan nom bilan mashhur bo‘ladi.

Ohangaron tumani o‘zining geografik joylashuvi va tabiiy resurslari bilan katta salohiyatga ega. Ammo davlatimiz rahbari haqli e’tiroz bildirganidek, tuman iqtisodiyoti hali Yangi O‘zbekiston shiddatiga mos kelmayapti. Tumandagi mavjud imkoniyatlar va zaxiralardan to‘liq foydalanilmayapti. Masalan, Angren bilan tutash hududlarda jami 280 gektardan ziyod sanoatlashtirilishi mumkin bo‘lgan maydon mavjud. Bugungi kunda shundan 160 gektari uchun investorlar topilgan. Qolgan hududlarga ham yuqori texnologiyali kompaniyalarni jalb qilish, “aqlii” investitsiya kiritish dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda.

Shu jihatdan davlatimiz rahbari tomonidan belgilab berilgan vazifalar millionlab insonlar taqdiri, har bir oilaning ertangi kuniga daxldor ekanini bilan yanada ahamiyatlidir. Shunday ekan, kelajakni ko‘zlab, inson omiliga e’tibor qaratgan holda aholi farovonligini ta’minlash yo‘lida qayg‘urish, ta’lim sifatini oshirish borasida Prezidentimiz tomonidan yuklatilgan topshiriqlarning ijrosini bekamu ko‘st ta’minlash nuqtayi nazaridan faoliyatimizni yanada kuchaytiramiz.

Narzullo OBLOMURODOV,
Toshkent davlat agrar universiteti rektori.

Xalq so‘zi
2026-yil 18-fevral
Dunyo nigohi
SHARQ MADANIYATI
VA ADABIYOTI
GULTOJI

Adabiyot – xalqimizning ma’naviy olamini yuksaltirishda alohida ahamiyatga ega. Bu yo‘lda ulug‘ adiblarning ijodini o‘qib-o‘rganish, keng targ‘ib qilish asosiy vazifa hisoblanadi. Shoh va shoir, buyuk mutafakkir Zahiriddin Muhammad Bobur adabiyotimizning ana shunday namoyandalardan biridir.

Ta’kidlash joizki, uning hayoti va ijodi asrlar davomida dunyo olimlarining diqqat-e’tiborini tortib kelmoqda. Ularning quyidagi fikrlari ham aynan shu haqda.

Helmut DALOV,
adabiyotshunos va tarjimon
(Germaniya):

– Sharq mumtoz O‘rta asr mutafakkirlari orasida Mirzo Boburdek jahon sharqshunosligida eng erta o‘rganila boshlangan, ma’lum va mashhur bo‘lgan boshqa shaxs juda kam topiladi. Bu siyomoning mumtoz shoir sifatidagi merosini e’tirof etgan holda shuni ta’kidlash lozimki, unga jahoniy shuhrat keltirgan asar – “Vaqoye”, ya’ni “Boburnoma” ko‘plab jahon tillariga tarjima qilingan.

Mazkur asar memuar janrning mukammal namunasi, tarixiy-badiiy manba hisoblanadi. U turli tillarda adabiyotshunoslar, tarixchilar, tilshunoslar, san’atshunoslar, etnograflar, hayvonot va nabotot sohasi tadqiqotchilarining



o‘rganish manbasiga aylangan.


Mirzo Boburga bo‘lgan muhabbatim ham aynan shu asar orqali uyg‘ongan. Germaniyada kaminaning tarjimasida “Boburnoma”ning yangi, to‘ldirilgan nashri bosmadan chiqdi. Unda qolgan tarjimalardan farqli o‘laroq asardagi qahramonlar hayoti va o‘sha davr voqeligini aks ettirishda asl tarixiy haqiqatlarni ochishga harakat qilindi.

Ishonamanki, bu asar Zahiriddin Muhammad Bobur shaxsiyatini, ijodini germaniyalik o‘quvchilarga ochib berishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kerol ERMAKOVA,
adabiyotshunos va tarjimon
(Buyuk Britaniya):

– Bu benazir shaxs 47 yilgina yashab bizga chinakam hayot insoniyatga nechog‘li foydamiz tegishida, avlodlarga niman meros qoldirishda ekanini anglatgani bilan juda qadrlidi. Uning asarlaridagi kabi yuksak san’atkorlik, go‘zal badiiyat, inson sha’nini ulug‘lashni boshqa ijodkorda topish mushkul.

Unga bo‘lgan muhabbatim bois O‘zbekiston xalq yozuvchisi Pirimqul Qodirov qalamiga mansub “Bobur. Yulduzli tunlar” romanini ingliz tiliga o‘girdim. Tarjima matni Juli Uikenden tomonidan tahrirlandi. Taniqli o‘zbek rassomi Bobur Ismoilov esa kitob uchun suratlar ishlatdi. Asar Fransiyaning nufuzli “Nouveau Monde Editions”



nashriyotida chop etildi.

Tarixiy roman atoliqi shoir, sarkarda va davlat arbobi Zahiriddin Muhammad Boburning dramatik hodisalarga boy qismatidan hikoya qiladi. Uni o‘qir ekansiz, XV-XVI asrlarda Markaziy Osiyo va Hindistonda kechgan tarixiy voqealar bilan yaqindan tanishasiz.

Bunday asarlar o‘quvchilarning tarixga oid bilimlari oshishi, tasavvurlarining kengayishida muhim rol o‘ynaydi, albatta. Mening ham bu ishga, zarracha bo‘lsa-da, nafim tekkandan xursandman.

Aviva ROZENTAL,
Smitson Osiyo san’ati milliy muzeyi xodimi (AQSH):

– Har bir xalqning tarixiy, madaniy, milliy qiyofasini belgilab beruvchi ulug‘ yo‘lboshchilari, buyuk olimlari, yirik adib va shoirlari bo‘ladi. Iskandari Maqduniy, Suqrot, Arastu, Buqrot, Yevripid, Homer kabilarini eslaganimizda, millatlarning buyuk merosi, madaniyati qanchalar ulug‘vorligi va nafosati namoyon bo‘ladi. Shubhasiz, Mirzo Bobur ham nafaqat o‘zbek millati, balki dunyo tarixida o‘chmas iz qoldirgan shaxslardan biridir. Shoh va sarkarda, shoir va faylasuf Zahiriddin Muhammad Bobur haqida so‘z ketganda, uning siyosat, adabiyot, iqtisodiyot, jug‘rofiya bobida avlodlarga qoldirgan buyuk madaniy merosini eslash o‘rinli.

Mirzo Bobur ijodi, aql-zakovati bilan bugungi kunda ham dunyo adabiyotshunoslari, tadqiqotchilar, adabiyot muhiblari hamda keng jamoatchilik orasida alohida hurmatga sazovor bo‘lgan.

Bundan besh yil muqaddam muzeyimizda Bobur va boburiylar merosi mavzuga bag‘ishlab o‘zbekistonlik va amerikalik olimlar ishtirokida qo‘shma ilmiy-amaliy simpozium tashkil etildi. Ko‘rgazmada AQSH muzeyida boburiylar davriga oid 20 dan ziyod noyob artefaktlar namoyish qilindi.

Bugungi kunda ham muzeyimizda Mirzo Bobur hayoti va ijodi, jumladan, boburiylar davri madaniyatini kengroq yoritish borasida ishlar jadal ravishda olib borilmoqda.

Rahmatjon BOBOJONOV
 (“Xalq so‘zi”) yozib oldi.

Tibbiyot

YANGI RAQAMLI
MODULLAR

O‘zbekiston tibbiyoti taraqqiyotning yangi bosqichi – raqamli sog‘liqni saqlash davriga qadam qo‘ymoqda.

Sohani to‘liq raqamlashtirish va tibbiy xizmatlar sifatini yanada oshirish maqsadida tizimga eng ilg‘or axborot texnologiyalari joriy etilyapti. Xususan, ayni paytda barcha davlat tibbiyot muassasalari “DMED” yagona raqamli tibbiy axborot tizimiga ulanib, qariyb 38 million aholining elektron tibbiy kartasi shakllantirildi.

Bu haqda Respublika ixtisoslashtirilgan dermatologiya, venerologiya va kosmetologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazida o‘tkazilgan tibbiyotga doir yangi raqamli modullar taqdimotida aytib o‘tiladi.

Qayd etilganidek, “DMED” yagona raqamli tibbiy axborot tizimining imkoniyatlari keng. Mazkur tizim orqali bemorlarni ro‘yxatga olish, qabul jarayonlarini avtomatlashtirish, davolash rejalarini shakllantirish hamda tibbiy ma’lumotlarni markazlashgan holda yuritish imkoni yaratilgan.

2026-yilda “DMED” va “Elektron retsept” modulini yanada rivojlantirish, xususan, respublika ixtisoslashtirilgan tibbiyot markazlarida ushbu platformadan, xususiy tibbiyot muassasalari va dorixonalarga esa “Elektron retsept” modulidan foydalanish bo‘yicha o‘quv mashg‘ulotlarini o‘tkazish ko‘zda tutilgan.

“Xalq so‘zi”.

HAMMASI O‘ZIMIZGA BOG‘LIQ

Ko‘chaga chiqsangiz hayot qaynaydi. Hamma o‘z tashvishi bilan qayrgadir shoshadi. Biroq bu manzarada dilni xira qiladigan bir holat bor – bu odamlarning tozalik masalasiga e’tiborsizligi. Kimdir yo‘l-yo‘lakay sigaret chekib, qoldig‘ini maysalar ichiga uloqtiradi, kimdir bo‘shqarav suv idishini yo‘l chetiga tashlaydi. Hatto avtomobilda ketayotganlar ham oynani ochib, nimanidir tashqariga otadi. Afsuski, bu oddiy holga aylanib qolgan. Atrofimizda tobora ko‘payib borayotgan chiqindilar, ayniqsa, plastik idishlarga parvo ham qilmay qo‘yganmiz.



“baklajka”, eng yomoni, yer osti yo‘llari, xilvatroq joylarda hayvon qilmaydigan ishlarni qilib ketishadi... “Shahrimiz toza tursin, o‘zimiz, bolalarimiz yashaydi”, deyishsa qaniydi. Odamlarimiz biroz tartibga rioya qilishsa bo‘ladi-ku, axir!

Jonidan o‘tganidan kuyinib gapirayotgan Lola opa “Chiqindi qutilarga plastik va boshqa narsalar alohida-alohida solinadimi?”, degan savolga “Yo‘q” deya javob berdi. Holbuki, yonma-yon turgan qutilarga plastik yoki oziq-ovqat chiqindilarini alohida solish kerakligi yozib qo‘yilgan. Dunyoning ko‘plab rivojlangan mamlakatlarida chiqindilarini alohida-alohida qo‘yish uchun sharoitlar yaratilgan, qat’iy talablar qo‘yilgan va aholi bu talablarga astoydil rioya qiladi.

O‘zbekistonda ham shahar aholisining ko‘payishi, tez tayyorlanadigan ovqat shoxobchalarining kengayishi – plastik sarfini yildan-yilga oshirmoqda. Shunday sharoitda har bir fuqaroning oddiy va kundalik odatlari ulkan ekologik natija bera olishi turgan gap. Jahon tajribasiga asoslanib shuni aytish mumkinki, matoli sumka, shisha idish, ko‘p martalik asboblari, qayta to‘ldiriladigan mahsulotlar va chiqindilarni ajratish kabi oddiy qadamlar shaharlarning sanitar holatini yaxshilaydi, tabiiy resurslarni tejaydi, qayta ishlash xarajatlari qisqartiradi va turizm hamda servis sohasiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Eng muhimi, inson salomatligini himoya qiladi.

serqatnov yo‘laklarda har 20 – 30 metrda chiqindi qutilari turgani mushkulingizni oson, ko‘nglingizni esa ravshan qiladi. Va bunday manzara ehtiyojga qarab mamlakatimizning har go‘shasi, ayniqsa, odamlar gavjum joylarda aks etsa deysiz.

Ochig‘ini aytish kerak, shaharlarimizning ozodaligi – siz bilan bizning vatanparvarligimiz, ekologik madaniyatimiz tufayli emas, qayga qarasangiz, chumolidek tinim bilmay suprib-sidirlayotgan “sariq libosli” fidoyilarning mashaqqatli mehnati evazi, desak, adashmaymiz.

– Men o‘n olti yildan beri shahrimiz ko‘chalarini tozalash ishlari bilan shug‘ullanib kelaman, – deydi Shayxontohur tumani obodonlashtirish boshqarmasi xodimi Lola Ikromova. – To‘g‘risini aytсам, odamlar mehnatimizning qadriga yetmaydi. Erta tongda, soat 06:00 da ish boshlaymiz. Yozni yoz, qishni qish demasdan, hammayoqni tozalaymiz. Ammo ko‘z ochib-yumguncha yana eski holiga keltirib qo‘yishadi. U yozda “salafan”, bu yozda

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ekologik dasturlar va “yashil” iqtisodiyot strategiyasi aynan fuqarolarning ongli va mas’uliyati ishtirokiga tayanadi. Zero, ekologik ingirozlar nafaqat davlat mijqosidagi siyosiy muammo, balki har bir fuqaroning kundalik odatlariga ham bog‘liq masaladir.

G‘olib BAHROMOV
 (“Xalq so‘zi”).

Shu yil 1-sentabrda oliy o‘quv yurtlarida “Oliyogholar – startaplar generatori” dasturi amalga oshiriladi.

Bosh muharrir O‘tkir RAHMATOV

2020-yil 25-martda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr indeksi – 229. Buyurtma G-142. 31 016 nusxada bosildi. Hajmi – 2 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog‘oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma’lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; ko‘tibiyat 71-259-74-53;
e’lonlar 71-259-74-55.



Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun ohunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi hamda operator M. Begumratov tomonidan sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas’ul.
Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko‘chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir G‘. Bahromov.
Musahhih S. Islomov.

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:
Buyuk Turon ko‘chasi, 41. O‘ZA yakuni – 23.50 Topshirildi – 01.15 1 2 3 4 5 6